

## CHORMITAN OLTIN KONIDAGI MA'DAN QAMROVCHI JINSLARNING HOSIL BO'LISH SHAROITLARI

**Qobilov Olimjon Sirojiddin o'g'li**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchi

**Abruyev Samandar Shodmon o'g'li**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti 13a-21KI talabasi

**Xakimova Sabina Zaynitdin qizi**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti 13a-21KI talabasi

**Davronova Gulchehra Jurabek qizi**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti 13a-21KI talabasi

**Annotatsiya:** *Chormitan oltin konidagi ma'dan qamrovchi jinslarning hosil bo'lish sharoitlari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Gabbro-sienitli kompleks, granosienitlar kompleks, intruziv tog' jinslar, plagioklaz, prizmatik donalar, monoklin piroksen, plagioklaz zonallik, kimyoviy va fizik xossalar.*

Chormitan ma'dan maydoni madan kamrovchi jinslari juda murakkab tuzilmasini tashkil qilgan tog' jinslari qo'yidagicha guruhlangan. Gabbro-sienitli kompleks: 1) Ishqorli gabbroitli esseksitlarga yaqin, 2) melasienitlar va sienitli dioritlar, 3) yirik donali ovoid va traxitoidli sienitlar, 4) plageosienitlar, 5) maydadonali porfirsimon kvarsli sienitlar, 6) maydadonali kvarsli sienitlar. Granosienitlar kompleks: yirik donali ovoidli granosienitlar (bosh faza), mayda o'rtacha donali ovoidli granosienitlar, tomirsimon leykogranitlar va pegmatitlar. Intruziv tog' jinslar ko'p holatda sienitlashganlar ishqorli amfibollar va piroksenlar dalashpatlari bilan metasomatik o'zgargan, shuning bilan birgalikda keskin kontaktlar hosilalari bilan, Tegirmonovulning shimoliy qismida, O'rtoliqning qirg'og'ida va boshqa joylarda sienitlardagi gabbroidlarni kontaktlari bilan birgalikda o'ta rogoviklashgan ksenolitlarni ko'rishimiz mumkin. Lekin ular sienitlashgan qumtoshlar va slanetslar emas (intruziv quyi qismidagi rivojlangan). Bu holat shundan darak beradiki, dastlab gabbroidlar, rogoviklarda alohida intruziv tanalar hosil qilgan. Shundan keyin esa sienitlar kirib kelishi bilan ko'plab mayda va yirik ksenolitlar xosil qilib

parchalangan. Intruziv jinslarning strukturasi asosan gipidiomorfonador monsonitlar, mirmekitli, kamdan–kam hollarda allotriomorfonadordir. Gabbro–sienitlar va sienitlar turli shakldagi va o‘lchamlardagi ksenolitlar (ko‘ndalang kesimi 10-15 sm. dan to bir necha m2largacha) va blok–ksenolitlar (20 yaqin umumlashtirilgan harsanglar) ko‘rinishida massivning markaziy qismida yotadi. Traxitoidlar va tekis donador sienitlarni uncha katta bo‘lmagan tanalari massivning janubiy sharqiy edokontaktida joylashgan. Gabbroning tarkibi quyidagicha: plagioklaz 50-60% klinoperoksen 15-25%, amfibol 14-16% K-Na dalashpati 4-5%, kvarts 0.5% va undan kam aksessorlar 2-3% (sfen, ilmenit va titanomagnetit, apatit, sirkon) Plagioklaz o‘rta donali, N 25-35, ayrim paytlarda N 40-45 gacha. Birlamchi jins hosil qiluvchi mineral. O‘lchamlari ko‘ndalang qirqimda 0.8mm. dan 1sm gacha. Prizmatik donalar (sienitdioritlarda, yirik donadorsienitlar porfirsimon ajratmalar) hosil qiladi. Gabbroidlarda, melanokratli porfirsimon sienitlarda va monsonitlarda bir oz zonallilik ko‘zga tashlanadi: yon chekkalariga–andezin 32-33% An, yadrosiga – labrador 52-57% An. to‘g‘ri keladi. sienit –dioritlarda, granosienitlarda andezin (22-37% An.) Monoklin piroksen rangsiz va yashilsimon, donalar markazida tiniq yashil. Absorbsiya sxemasi  $N_g < N_m < N_p$ ;  $CN_g = 48^\circ$ ;  $2V = +56^\circ$  Nur sinish ko‘rsatkichlari  $N_g = 1,758$ ,  $N_m = 1,742$ ,  $N_p = 1,727$ . Kimyoviy tarkibi bo‘yicha ular esseksitlarga yaqin, lekin standartga tenglashtirilganda magniy miqdori kam. Melasenitlar va sienitli – dioritlar. Bu o‘rta–yirik donali rogovaya obmanka peroksenli va peroksen–rogovaya obmankali jinslar. Shuningdek, ular intruzivning markazida aloxida tektonik bo‘lakli va keyingi fazodagi hosil bo‘lgan jinslar orasida ksenolit bo‘lakli ko‘rinishda harakterlanadi. Melasenitlar ishqorli gabbroidli ksenolitlarni tarkibiga oladi va o‘zlari kech hosil bo‘lgan sienitlar granosienitlar ksenolitlar hosil qiladi, feldshpatizatsiya va dezintegratsiya va shunga o‘xshash holatlar harakterlidir, kech hosil bo‘lgan tog‘ jinslarining yoriqlarini to‘ldirishi, bular hammasi magmatitlarni hosil qilishi va oldingi xolatlardagidek sekin–asta o‘tishni ko‘rsatib beradi. Bir necha bor keskin kontaktlar kuzatilgan melasenitlar va sienitli dioritlar – massiv qoramtir, kulrang yoki yashilsimon KNa shpati 3-40 sm ovoidli tog‘ jinslaridir. Tarkibi quyidagicha plagioklaz 42,8%, K-Na shpat 30,4%, kvarts 0,9% shoxaldamchisi 10,3% klinoperoksen – 12,8%, biotit, titanomagnetit va ilminit 2,4%. Bulardan tashqari apatit, sirkon bor pirit, sheelit ham uchraydi. Tog‘ jinslari strukturasi allotriomorfdonalidir turli donali, gipidiomorfdonal va monsonit elementi murakkablashgan. Plagioklaz zonallik N30-40 yadrosida, N 20-25 chetlarida. Tahliliy natijalarga ko‘ra o‘rtacha tarkib N 28 ga to‘g‘ri keladi. K-Na li shpat kuchli kam panjarali, kripto va mikropertitli,  $02/AV = 60,5/39,5$  ga to‘g‘ri keladi. Egirin-avgit yoki egirin–diopsidda tiniq yashil rangga o‘tadi. Ko‘rib chiqilayotgan jinslar kimyoviy tuzilishda ixchan komponent guruxlar hosil qiladi. Krenizyom (54-56%) bo‘yicha ular

dioritlarga to'g'ri keladi, lekin yuqori ishqorlanish ko'rinadi bu esa nomenklaturani tanlashga imkon yaratadi. Shunday aniqlik bilan ular intruzivdagi boshqa tog' jinslaridan magnitlanishi va zichligi bilan ajralib turadi. Kimyoviy va fizik xossalarning bir xilligi haqida ma'lumot geologik kuzatuvlar bilan birgalikda melasienitlarni va sienitli-dioritlarni intruziv hosil bo'lish jarayoni mustaqil fazasi ekanligini asoslaydi. Porfiroblastik (ovoidli) yirikdonali sienitlar Qo'shrabod intruzivining ichki qismida ko'p qismi yer yoriqlari bilan chegaralangan yirik bo'laklardan iboratdir. Shuningdek kech hosil bo'lgan granosienitlar orasida ksenolitlar hosil qiladi. Ularning o'zi yuqorida qayd etilganidek ishqorli gabbroidlar. Melasienitlar, ba'zida rogovikli qumtoshlar va slanetslardan iborat ksenolitlar hosil qiladi. Dala shpatining kaliy natriyli ovoidlari ko'pligi harakterlidir, amfibol, plagioklaz va boshqa mineral tarkibi to'liq zonal joylashgan. Tarkibi: plagioklaz 39.2%, K-Na shpat 41.6%, kvars 3.4% biotit 1.6%, rogovaya obmanka 11.0% klinopiroksen 2.6%, aksessorlar 0.6% o'rtacha 27 ta dan shliflar 8 ta namuna uchun. Melasienitlarga nisbatan bu tog' jinslarida rangli minerallar kam ayniqsa peroksen. Biotit sezilarli rol' o'ynaydi. Aksessor minerallar yuqoridagi guruh kabidir, lekin ko'proq tog' jinsi strukturasi turli donali, allotriomorfdonali, gipidomorfdonali o'tuvchi, bo'laksimon monsonitli, mirmekitli, har doim, N 37-22 K-Na-shpatlar avoidlarning asosini tashkil etadi, lekin ular asosiy qismida ham ko'pdir. Ba'zida zaif panjarali och  $AV=65.5/34.5$  nisbatiga, triklin darajasi 0.2. optik xossasiga ko'ra diffraksion. Sienitlar kimyoviyli bo'yicha SiO<sub>2</sub> ning 58 va 60%li tor oralig'ida voriatsiyali kichik guruhlaridan va boshqa oksidlarning sezilarli o'zgargan miqdorlaridan iborat. Tog' jinslarida magniyning kamligi va ishqorlar yig'indisining yuqoriligi (8.5-10%) harakterlidir. So'ngi sharoitdagi holat tog' jinslarini sienitlar deb atashga asos bo'ladi. Barcha daraklar bo'yicha ular asosiy fazadagi gronosienitlardan farqlanadi. Gomogen intruziv tanalari yosh bo'lganlari hoida ajralib chiqishi boshqa jinslardan aniq ajralib turishi, geologik ma'lumotlardan tashqari, petrofizik yo'nalish bo'yicha ham tasdiqlanadi ularda ovoidli sienitlar boshqa tog' jinslaridan o'zining zichligi va magnitlanishi bilan ajralib turadi. Yirik donali traxitoidli sienitlar. Bu jinslar yuqoridagi sienitlardan tusini, teksturasiga va tarkibining alohidaligi bilan ajralib turadi. Traxitoidlar sienitlar uncha katta bo'lmagan hosil qiladi, ular intruzivning chetki Janubiy-sharqida rogoviklar orasida Qoratepa tog'ida Tokikovul yaqinida joylashgan. Asosiy tananing granosienitlaridan rogoviklar ajralib turadi. Sienitlar pushti yoki qizil rangda, qora amfibol aniq ajralib turadi. Xol-xol donalar ovoid emas, zichlashgan-parallelopiped shaklida, yana bir tomonga yo'nalgan. Endokontaktning keng zonasida sienitlar leykokratli bo'lib boradi, ularda amfibol yo'qolib boradi yoki kvars tarkibida saqlanib qoladi. Uning o'rniga biotit rivojlangan lekin qora rangli emas, och rangli,

qizil (shlifda). Plagioklazning miqdori o'sadi kvars paydo bo'ladi (5-10%). Anofizalarda bioitning miqdori kamayishi kvarsning miqdori oshishini ko'rishimiz har doim granit uchraydi. Kimyoviy tarkibi bilan ular granosienitlarga yaqin. Rogoviklarda kontaktdan 3-4 metr uzoqlikda 0.5-1 m li tomirsimon va hol-holsimon asosan mikroklinli kvars –mikroklinli. Bu ko'rinish rogoviklarda kontakt oldi sienitlashuvi yoki granitlashuvi, qaysini ularning masshtabi va endokontakt fatsiyali sienitlarga o'xshashligiga ko'ra, sienit tanasining paydo bo'lishida yordam beradi. Bu tananing asosiy intruziv harakteri rogoviklarda ksenolitlarining ko'chib yurishi shuningdek sienitlarini ko'chib yurishidan (traxitoidli sienitlarga yaqin tarkibli) (strukturasi bo'yicha bo'lakcha) va sienitli eritmaning aloxida paydo bo'lishidan dalolat beradi, (qumtoshgilli qatlamga singdirilgan).

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хамроев И.О. Отчет о результатах детальной разведки верхних горизонтов Гужумсайского месторождения за 1988-97 гг. с подсчетом запасов по состоянию на 1 августа 1997г. В 8 книгах, пос.Чормитан, 1997.
2. Туропов I.SH. Отчет о результатах детальной разведки глубоких горизонтов Гужумсайского месторождения за 2003-2010 гг. с подсчетом запасов по состоянию на 2010г. В 8 книгах, пос.Чормитан, 2010.
3. Хакимов Ш.И., Халимов М.М., Буриев Ш.У., Исследования особенностей технологии разработки жилных месторождений кизилкумского региона подземным способом с самоходных комплексов. Научно- производственный журнал «Горный весник Ўзбекистана», 2015 й №2, 61-67 стр.
4. Тураев А.С., Жиянов А.Б., Буриев Ш.У. Исследования влияния отношения висоти образса эго диаметру на прочносние и деформационние свойства горних пород. Научно- производственный журнал «Горный весник Ўзбекистана», 2020 й №1, (80)18-21 стр.